

GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI

D.K.Kurbanova

Andijon pedagogika texnikumi direktori

Annotatsiya: Mazkur maqola gender tenglikka erishish yo'llari, gender tenglikni asoslovchi huquqiy me'yoriy xujjatlar va ularning amalda qo'llanilishi, mamlakatimizda bu sohada olib borilayotgan davlat siyosati, gender tenglikka erishishning asosiy tamoyillari masalalarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Gender strategiyasi, gender strategiya natijalari, bugungi O'zbekistonda gender tenglik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, gender strategiya tamoyillari, tizimli monitoring, gender strategiyasi monitoringi

Gender jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalashuv shakli bo'lib, bunda irq, millat, sinflar, guruhlar singari jins vakillari o'rtasida ham ma'lum ierarxik munosabatlar o'rnatiladi. Tug'ilganidanoq inson gender tizimi ta'sirida bo'ladi. An'anaviy urf-odatlar ta'siri kuchli bo'lgan jamiyatlarda tug'ilish bilan bog'liq bo'lgan turli udumlarga rioya etish, masalan, chaqaloqqa tanlanayotgan kiyimning rangidan boshlab o'yinchoqlargacha e'tibor qaratish – insonni yoshlik chog'idanoq gender tizimiga kiritadi, oilada farzandlarga bo'lgan munosabatda ham gender farqlar ko'zga tashlanadi.

Gender tadqiqotlari dastlab ayollar muammolarini o'rganish doirasida amalga oshirilgani bois hozirga qadar ayrim odamlar «gender» so'zini «feminizm» iborasi bilan aynan bir xil ma'noda talqin etadi. Biroq, «feminizm» sohasidagi tadqiqotlar ayollarning jamiyatdagi mavqei, ularning haq-huquqlarini ta'minlash kabi mavzular doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, gender tadqiqotlari, avvalo, erkak va ayol mavqeining o'zaro nisbati, ularning xatti-harakatini belgilovchi xulq me'yorlari hamda ularga asoslangan rollar, ana shu rollarning shaxs shakllanishiga ta'sir etishini o'rganishga yo'naltirilgan.

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish masalasi alohida o'rin tutadi

Gender tenglikka erishish strategiyasining asosiy maqsadi-irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat.

Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021 yil 28 maydagi qarori bilan 2030 yilga qadar O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi ham qabul qilingan.

Gender strategiyasining amalga oshirishning qator ustivor yo'nalishlari mavjuddir. Ularning birinchisi saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashdir. Unda siyosiy partiyalarning saylov jarayonlariga xotin-qizlar va erkaklarning teng asosda jalb qilish, xotin-qizlarni

tayinlanadigan rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilishga oid faoliyatini rag‘batlantirib borish, siyosiy partiyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Korakalpogiston Respublikasi Jo‘qorg‘i kengashi, xalq deputatlari maxalliy kengashlarga saylovlarda nomzod ko‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar berilganligini monitoring qilish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish orqali ularga nisbatan jamiyatda shakllangan salbiy qarashlarni o‘zgartirib borish kabi qator vazifalar amalga oshiriladi.

Ikkinchi asosiy ustivor yo‘nalish davlat xizmatlarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlashdir. Bu jarayonda davlat organlarining raxbarlik lavozimlariga tanlov asosida tayinlash mexanizmini joriy qilish orqali xotin-qizlarning raxbar lavozimdagi ulushlarini bosqichma-bosqich oshirib borish, jamiyat xayotiga oid qarorlar qabul qilishda ayollar ishtirokini kuchaytirish, ularning xalqaro xamjamiyatlardagi o‘rnini mustaxkamlash, turli xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, maxalliy ijroya xokimiyat organlarining raxbarlik lavozimlariga qo‘yish amaliyotini kengaytirish kabi tadbirlarni amalga oshirish muximdir.

Keyingi asosiy ustivor vazifa ta‘lim, ilm-fan, sport va sog‘liqni saqlash sohasida teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash xisoblanadi. Ularni ta‘minlashda uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlarni umr davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyaga muxtoj xotin qizlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, ularni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, inovatsion, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatini qo‘llab quvvatlash, extiyoj bor sohalarda malaka oshirish, tajriba almashish kabilarni joriy qilish, xududlarda, ayniqsa qishloq joylarda tibbiy madaniyatni oshirish, nikox munosababtlarida ayollar va erkalar teng xuquqliligiga erishish, jinslar o‘rtasidagi kamsitishlar, xotin qizlarga nisbatan maishiy zuravonlik masalalari bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, gender strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

- raxbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengayadi;
- xotin-qizlar saylov jarayonlariga keng jalb qilinadi;
- xotin-qizlar uchun munosib sharoitli ish o‘rinlari yaratiladi, ularni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, o‘zini o‘zi band qilish samaradorligi oshadi;
- xar ikkala jins vakillariga nisbatan tazyiq va zuravonlik xolatlari kamayadi va ularni oldini olinadi;
- huquqiy savodxonlik ortishi natijasida mehnat migrantlari bo‘lgan ayollarning haq-huquqlari ximoya qilinadi;
- oilaviy qadriyatlarni mustaxkamlash, farzandlar tarbiyasi, ularni ahloqiy, intellektual va estetik rivojlantirishda xotin-qizlarning ma’suliyati va roli ortadi;
- xududlarda, ayniqsa qishloq hududlarida ayollarga ko‘rsatilayotgan tibbiy ijtimoiy xizmatlarni sifati yaxshilanadi;

-shaffof byudjet siyosatini yuritish orqali jinslar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, manzilli davlat xizmatlari ko‘rsatish, ularning sifati va samaradorligini oshirish choralari ko‘riladi.

Ushbu natijalarni amalda ko‘rib chiqsak, Oliy majlis Qonunchilik paloatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 %ini xotin-qizlar tashkil etadi. Senatda esa bu ko‘rsatkich 25%ga yetdi. O‘zbekiston Parlamenti ayol deputatlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Yoki 2020 yili ilk bor Feruza Maxmudova Isroil davlatiga birinchi ayol elchi sifatida tayinlandi. Lekin, shunga qaramasdan, ayni paytda mamlakatimizning 170 nafar tuman, 25 nafar xokimlari orasida faqatgina 6 nafar ayollar faoliyat olib boradi.

Ayollarning yuqori, boshqaruv lavozimlariga tayinlanishlari jamiyatga, mamlakatga nima beradi? Avvalo ayol-ona Ona esa doimo o‘z farzandlari, yaqinlarini himoya qilish, ularni farovonligini ta‘minlashga intiladi. Ular avvalo, tinchlik, ijtimoiy zaif qatlamni himoyalash, davlatning iqtisodiy-ijtimoiy zaif qatlamni himoyalash, davlatning barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlashga xarakat qilishadi. Buni jaxon tajribasida ham kuzatishimiz mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi SQ-297-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi
- 2.Sh.Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent 2021
3. S.Bern “Gender psixologiyasi” Sank-Peterburg 2002
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengash 46-sessiyasidagi nutqi
- 5.R.Ubaydullayeva “O‘zbekiston; ayol, oila va jamiyat” 2006
- 6.”2022-2026n yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi sayti <https://adliya.uz>.